



“TASDIQLAYMAN”

“Hududgazta'minot” AJ
Boshqaruv Raisi o'rinbosari
A. Turdibayev

Buxgalteriya boshqarmasi

**Budjetga hisoblangan soliqlar va to'lovlarning soliq xizmati organlariga
taqdim qilingan hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishi yuzasidan soliq maslahati
xizmatini xarid qilish uchun**

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent – 2024 yil

Xizmatlar predmeti –budjetga hisoblangan soliqlar va to‘lovlarning soliq xizmati organlariga taqdim qilingan hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilishi yuzasidan soliq maslahati xizmatini ko‘rsatish.

Xizmat ko‘rsatishning maqsadi – 2024 yil yakuni bo‘yicha budjetga hisoblangan soliq va to‘lovlarning hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish, hamda 2025 yilda hisoblanishi lozim bo‘lgan soliqlar va to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi va budjetga o‘z vaqtida o‘tkazilishi holatini tahlil qilish, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar berish, zarur hollarda amaliy yordam ko‘rsatish.

Xizmat ko‘rsatish joyi: Toshkent shahri, Muqumiy ko‘chasi 98 uy, "HUDUDGAZTA'MINOT" AJ (STIR 306605769)

Amalga oshiriladigan xizmatlar: O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni talablari doirasida soliq qonunchiligiga rioya qilinishi yuzasidan soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash, soliq hisobotini tayyorlash va taqdim etish masalalari bo‘yicha yil davomida maslahat (soprovojdaniye) xizmati ko‘rsatish;

Soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar:

- soliqlar bo‘yicha hisobotlarning hisobot davrlarida (oylik, choraklik va yillik) to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida topshirilishini tekshirib borish;

- soliq va to‘lovlarni hisoblashda yo‘l qo‘yilgan kamchilik va xatoliklar aniqlangan taqdirda, ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan aniq takliflar berish;

har chorak yakunida soliq maslahati xizmati bo‘yicha buyurtmachiga oraliq yozma xulosa, hisob-faktura va bajarilgan ishlar yuzasidan elektron dalolatnoma taqdim qilib borish;

- yil yakuni bo‘yicha esa soliq maslahatchisining hisoboti va xulosasi taqdim qilinish.

Xizmat ko‘rsatish muddatlari:

- xizmat ko‘rsatishning boshlanish vaqi - Ijrochining bank muassasidagi hisob raqamiga Buyurtmachi tomonidan shartnoma ko‘rsatilgan joriy chorak uchun 15 foiz oldindan to‘lov amalga oshirilgan kundan;

- tugash muddati Buyurtmachining 2024 yil yakunlari bo‘yicha budjetga hisoblangan soliqlar va to‘lovlar yuzasidan hisobot topshirilgan kungacha, yoki 2025 yilning 10 aprelegacha.

XIZMATLAR TURLARI

Xizmatlarga quyidagilar kiradi: Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga 2025 yil davomida:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lash masalalari bo'yicha maslahat berish;

- soliqlar bo'yicha hisobotlarni tuzishda yordam berish;

- soliq solish ob'ektlari va soliqqa tortish bilan bog'liq ob'ektlarning hisobini aniqlash va yuritish bo'yicha yordam berish;

- soliq xizmati organiga (yirik soliq to'lovchilar bilan ishlash xududiy soliq inspeksiyasiga) taqdim yetilgan hisobotlarda hisoblangan soliqlar va majburiy to'lovlar summalarining to'g'ri aks yettirilganligini tekshirish;

- soliq to'lovchining shaxsiy kartochkalaridagi ma'lumotlarning jamiyat buxgalteriyasi ma'lumotlariga mos kelishini tahlil qilib borish;

- har chorak yakuni bo'yicha soliq maslahati xizmati bo'yicha buyurtmachiga oraliq yozma xulosa, hisob-faktura va bajarilgan ishlar yuzasidan elektron dalolatnoma taqdim qilish;

- 2024 yil yakuni bo'yicha soliq maslahatchisining hisoboti va xulosasi taqdim qilish;

- soliq konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi maslahatchi Buyurtmachiga milliy standartlarda belgilangan tartibda soliq maslahati bo'yicha hisobot va xulosani taqdim yetadi.

Soliq maslahati bo'yicha hisobot - soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan soliq maslahati predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat.

Maslahatchining xulosasi - bu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash, to'lash masalalari bo'yicha yozma shaklda bayon yetilgan maslahatchi fikrini o'z ichiga olgan hujjat.

Soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatishda Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan axborot va ma'lumotlarning sir saqlanishi va daxlsizligi (konfidensialnost) ta'minlanadi.

Boshqa shartar Buyurtmachi va Ijrochi tomonidan tuzilgan shartnomada aks ettiriladi.

Ijrochiga qo'yiladigan talablar

Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq maslahatchisining malaka sertifikatiga bo'lgan soliq maslahatchi, sug'urta polisi va davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvoxnomaga ega bo'lishi lozim.

Soliq maslahatchilari tashkiloti tashkil topganligiga kamida 3 yil bo'lgan bo'lishi, soliq maslahatchisining ushbu sohada kamida 3 yil ish tajribasiga ega bo'lishi lozim.

Soliq maslahatchisining soliq va moliya organlarida ishlagan bo'lishi ijobiy qabul qilinadi.

